



## Conceptual foundations for reforming local government authorities in Uzbekistan

Eldor ISOMIDDINOV<sup>1</sup>

Namangan State Institute of Foreign Languages named after Ishokhan Ibrat

### ARTICLE INFO

**Article history:**

Received January 2025

Received in revised form

15 January 2025

Accepted 25 February 2025

Available online

25 March 2025

**Keywords:**

local council,  
ecology,  
health authorities,  
new Constitution,  
strategy,  
state authorities,  
capacity,  
concept.

### ABSTRACT

This article provides the reform and improvement of local government bodies in Uzbekistan, the control activities of the local council, and ways to improve it. Also, the goals of these stages and their results and perspectives are analyzed.

2181-1415/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol6-iss2/S-pp90-96>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

## O'zbekistonda mahalliy davlat hokimiyati organlarini isloh qilishning konseptual asoslari

### ANNOTATSIYA

**Kalit so'zlar:**

mahalliy kengash,  
ekologiya va sog'liqni saqlash organlari,  
yangi Konstitutsiya,  
strategiya,  
davlat organlari,  
salohiyat,  
konsepsiya.

Ushbu maqolada O'zbekistonda mahalliy davlat hokimiyati organlarini isloh qilish, takomillashtirish yo'lidagi amalga oshirilayotgan harakatlar, mahalliy kengashning nazorat faoliyati, uning takomillashtirish yo'llari haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, bu bosqichlardan ko'zlangan maqsad va ularning natijalari, istiqbollari tahlil qilinadi.

<sup>1</sup> Dean of the Faculty of Philology, Namangan State Institute of Foreign Languages named after Ishokhan Ibrat.

# Концептуальные основы реформирования органов местной государственной власти в Узбекистане

## АННОТАЦИЯ

### Ключевые слова:

местный совет,  
органы экологии и  
здравоохранения,  
новая Конституция,  
стратегия,  
органы государственной  
власти,  
потенциал,  
концепция.

В данной статье говорится о реформировании и совершенствовании органов местного самоуправления в Узбекистане, контрольной деятельности местного совета и путях ее совершенствования. Также анализируются цели этих этапов, их результаты и перспективы.

## KIRISH

Mamlakatimizda so'nggi yillarda xalq deputatlari mahalliy Kengashlarining hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholini ijtimoiy himoya qilishga oid dolzarb masalalarni hal qilish bo'yicha vakolatlari kengaytirilib, xalq hokimiyatchiligini to'laqonli ro'yobga chiqarish borasida keng qamrovli islohotlar amalga oshirildi.

Mahalliy Kengashlarning nazorat faoliyatini kuchaytirishga qaratilgan huquqiy asoslar yaratildi. Mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining faoliyati ustidan xalq deputatlari Kengashlarining nazorat funksiyalarini kengaytirish maqsadida ularga o'ndan ortiq qo'shimcha vakolatlari berildi. Xususan, prokuratura, adliya, ichki ishlar, moliya, soliq, ekologiya va sog'liqni saqlash organlari rahbarlarining hisobdorligi belgilab qo'yildi.

Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari va ijro etuvchi hokimiyat organlari vakolatlari, mahalliy Kengash raisi va hokim lavozimlari bir-biridan ajratilganligi hokimiyatlar bo'linishiga oid konstitutsiyaviy tamoyilning mahalliy darajada ijrosini ta'minlashda muhim qadam bo'ldi.

Shu bilan birga, "O'zbekiston – 2030" strategiyasida ko'rsatib o'tilgan maqsadlar mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarini xalqning haqiqiy "ovoziga" aylantirish, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini transformatsiya qilib, hududiy boshqaruvni "aholi manfaatlariga xizmat qilish" tamoyili asosida yo'lga qo'yishni talab etmoqda. [1]

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada belgilangan hokimlar va xalq deputatlari Kengashlari vakolatlari taqsimlanishiga asoslangan davlat hokimiyatini tashkil etishning yangi modelini to'liq amalga oshirish, mahalliy Kengashlarning davlat va jamiyat boshqaruvidagi rolini kuchaytirish, mahalliy davlat hokimiyatini yangicha konstitutsiyaviy-huquqiy sharoitlarda yo'lga qo'yish maqsad etib belgilandi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari joylardagi davlat boshqaruv idoralari hisoblanib, mahalliy ahamiyatga molik hamma masalalarni o'z vakolatlari doirasida o'zlari hal etadilar, umumdavlat man-faatlarini shu hududda yashab turgan fuqarolarning manfaatlarini bilan uyg'unlashtiradilar, yagona davlat hokimiyati organlarining tarkibiy bo'g'ini sifatida yuqori davlat organlari qarorlarining amalga oshirilishini ta'minlaydilar.

Mamlakatimizda yillar davomida mahalliy hokimiyat organlarini rivojlantirish bo'yicha bir qator loyihalar ishga tushirilmoqda va bunday loyihalar davlatimizda mahalliy hokimiyat organlari isloh qilinishining yana bir ko'rinishi hisoblanadi. Ulardan

biri “Mahalliy davlat hokimiyati organlarini rivojlantirish va davlat boshqaruvini nomarkazlashtirish” loyihasi bo’lib, ushbu loyiha 2023-yil 14-dekabr kuni Adliya vazirligi hamda AQSh taraqqiyot agentligi (USAID) bilan hamkorlikda tashkil etilgan tadbirda ma’lum qilindi. Adliya vazirligi, Davlat boshqaruvi akademiyasi, Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi va AQSH Xalqaro taraqqiyot agentligining (Chemonics International) o’zaro hamkorligida amalga oshirilayotgan mazkur loyihaning umumiy qiymati 15.2 million dollarni tashkil qiladi.

Loyihada ijro hokimiyati organlari faoliyatini takomillashtirish, kadrlar va moddiy resurslardan oqilona foydalanish bo’yicha aniq mezonlarni ishlab chiqish, hokimiyatning vakillik organlari va ijro hokimiyati idoralari o’rtasida yaqin hamkorlikni ta’minlash, davlat boshqaruvida ochiqlikka asoslangan, samarali qarorlar qabul qilish tizimini tatbiq etish va davlat boshqaruvini haddan tashqari markazlashtirishdan voz kechish, takrorlanuvchi vazifa va funksiyalarni bekor qilish, davlat organlarini fuqarolik jamiyati institutlari va ommaviy axborot vositalari vakillari bilan hamkorligini oshirish, hisobdorlik va jamoatchilik nazorati kabi masalalar nazarda tutilgan.

Ma’lumki, O’zbekistonda boshlangan navbatdagi ma’muriy islohotlar natijasida hukumatga bo’sunadigan ijro organlari soni 61 tadan 28 taga, shu jumladan vazirliklar soni 21 tagacha qisqardi, 20 ta idora to’liq tugatildi. Ijro etuvchi hokimiyat yanada ixchamlashib, professional, xalqimiz talablariga javob beradigan, yuqori natijadorlikka yo’naltirilgan davlat boshqaruvi tizimi shakllantirilmoqda. Ishga tushirilayotgan mazkur loyiha, hozirda amalga oshirilayotgan ma’muriy islohotlardan ko’zlangan maqsadlarga erishishga ko’mak beradi. Shu bilan birga, tadbir davomida O’zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va AQSh Xalqaro taraqqiyot agentligi o’rtasida o’zaro anglashuv memorandumini imzolandi. Ushbu hujjatda mahalliy davlat hokimiyati faoliyati samadorligini ta’minlash va unda fuqarolar ishtirokini rag’batlantirish va mahalliy davlat hokimiyati organlari salohiyatini kuchaytirishga qaratilgan normativ-huquqiy bazani takomillashtirishga alohida e’tibor qaratilgan.

Demokratik islohotlar yanada chuqurlashgan hozirgi bosqichda ijtimoiy fanlar oldida davlat qurilishi sohasida, xususan, mahalliy davlat hokimiyati organlariga oid tegishli yangi vazifalar yuzaga kelmoqda. Zero, ularni yechimini topmasdan turib turib demokratiya yo’lida samarali ilgarilab bo’lmaydi. Hozirgi kunda mana shu yo’lni ham nazariy, ham amaliy jihatdan yanada chuqurroq tadqiq etish, uning yangi qirralarini ochib berish barcha olim va amaliyotchilarimiz oldida turgan dolzarb vazifadir. Shu bilan birga, amaliyotda hali mahalliy davlat hokimiyati organlarining aholi bilan ishlashda mavjud samarali shakl va uslublardan yetarlicha foydalanmayotganligi bilan bog’liq muammolar uchramoqda.

Aynan yuqorida ko’rsatilgan muammolarni samarali bartaraf etish maqsadida mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatini takomillashtirish zaruriyati mavjud, chunki mazkur organlar davlat organlari tizimida muhim o’rin egallaganligi va son jihatdan ko’pchilikni tashkil etuvchi bo’g’in bo’lganligi bois ular orqali asosan mamlakat oliy siyosiy rahbariyatining qarorlarini amalga tatbiq etilishi ta’minlanadi.

Bugungi kunda Prezidentning “Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatining samadorligini oshirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi farmoni bilan bilan “Kuchli kengash, tashabbuskor va hisobdor hokim” tamoyili asosida xalq deputatlari mahalliy kengashlari faoliyatini yanada kuchaytirish bo’yicha muhim qadamlar tashlanmoqda. Shu harakatning namunasi sifatida aytish mumkinki, O’zbekistonda mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatini 2030-yilga qadar rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish vazifasi belgilangan. [4]

Oliy Majlis Senati tomonidan konsepsiya ishlab chiqilishini tashkil etish komissiyasi va har bir yo'nalish bo'yicha soha mutaxassislaridan alohida ishchi guruhlar tashkil etildi. Oliy Majlis Senati rahbarligida tashkil etilgan komissiya majlisida mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarini tom ma'nodagi hokimiyat institutiga aylantirishni nazarda tutgan holda konsepsiya loyihasini ishlab chiqish masalalari muhokama qilindi. Unga ko'ra konsepsiyani ishlab chiqishda e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan yo'nalishlar belgilab olindi. Shu bilan birga, xalq deputatlari kengashlarining samarali faoliyati yuritishiga to'sqinlik qilayotgan omil va sabablarni chuqur tahlil qilish, vakillik organlari faoliyatiga oid xorijiy tajribani o'rganish lozimligi ta'kidlandi. Konsepsiyada mahalliy kengashlar faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish, ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash, raqamli texnologiyalarni keng tatbiq etish orqali deputatlar hamda saylovchilar o'rtasida elektron muloqot maydonini yaratish zarurligi qayd etildi. Konsepsiya hamda uni amalga oshirish bo'yicha tegishli "yo'l xaritasi" loyihasining keng jamoatchilik vakillari, xorijiy ekspertlar ishtirokida muhokamalarini tashkil etish kabi vazifalar belgilab olindi. Mana shu konsepsiya ko'zda tutilgan O'zbekistonda mahalliy davlat hokimiyati organlarini isloh qilishning muvaffaqiyati yo'lida yana bir qadam bo'la oladi.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda xalq deputatlari Kengashlarining hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholini ijtimoiy himoya qilishga oid dolzarb masalalarni hal qilish bo'yicha vakolatlari kengaytirilib, xalq hokimiyatchiligini to'laqonli ro'yobga chiqarish borasida keng qamrovli islohotlar amalga oshirildi.

Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari va ijro etuvchi hokimiyat organlari vakolatlari, mahalliy Kengash raisi va hokim lavozimlari bir-biridan ajratilganligi hokimiyatlar bo'linishiga oid konstitutsiyaviy tamoyilning mahalliy darajada ijrosini ta'minlashda muhim qadam bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 2-fevraldagi PF-28-son Farmonida O'zbekistonda mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatini 2030-yilga qadar rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish tavsiya etilib, unda mahalliy Kengashlarning norma ijodkorligi sohasidagi faoliyatini takomillashtirish va mahalliy Kengashlar qarorlarini ishlab chiqishda jamoatchilikning keng ishtirokini ta'minlash konsepsiyaning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida nazarda tutildi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining qaroriga muvofiq konsepsiya loyihasini ishlab chiqish bo'yicha tuzilgan Mahalliy Kengashlarning norma ijodkorligi sohasidagi faoliyatini takomillashtirish, qarorlar ishlab chiqishda jamoatchilikning keng ishtirokini ta'minlash yo'nalishi bo'yicha shakllantirilgan ishchi guruhning yig'ilishda mahalliy Kengashlar deputatlari tomonidan qarorlar loyihalarini ishlab chiqish, ularni manfaatdor tashkilotlar bilan kelishish va huquqiy ekspertizadan o'tkazish jarayonlari bilan bog'liq mavjud ahvol, bu borada uchrayotgan muammolar, ularni hal qilish yo'llari, ishlab chiqiladigan konsepsiya qonunchilik bazasini tizimlashtirish, ijtimoiy munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solish barqarorligini ta'minlash, norma ijodkorligi jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish kabi masalalar xususida fikr-mulohaza yuritilib, yig'ilish ishtirokchilari tomonidan konsepsiya loyihasini ishlab chiqishda ahamiyat qaratilishi zarur bo'lgan masalalar, mahalliy Kengashlar faoliyatini, jumladan, norma ijodkorligiga oid bo'lgan qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilayotganligi, ayniqsa bu yo'nalishda rivojlangan davlatlarning ijobiy tajribasi tadqiq qilinayotganligi ta'kidlab o'tildi va bu tadqiq ham rivojlanish konsepsiyasini amalga oshirishda ilg'or qadamlardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Markaziy Osiya davlatchilik tarixiga nazar solsak, davlat boshqaruvida ma'naviy-siyosiy tafakkurga alohida e'tibor berilgan. Bu fikrlar mavjud o'lkada mujassamlashgan siyosiy-huquqiy qadriyatlarni Yevropa va boshqa hududlarda shakllantirilgan qadriyatlardan ham rivojlangan holatda ekanligini isbotlaydi. Ushbu hududda vujudga kelgan qadriyatlar va xalqning ma'naviy dunyosi davlat siyosatining asosini tashkil etadi. [3]

Mahalliy davlat hokimiyati organlari – joylardagi davlat boshqaruv idoralari. Ular mahalliy ahamiyatga molik hamma masalalarni o'z vakolatlari doirasida o'zlari hal etadilar, umumdavlat manfaatlarini shu hududda yashab turgan fuqarolarning manfaatlarini bilan uyg'unlashtiradilar, yagona davlat hokimiyati organlarining tarkibiy bo'g'ini sifatida yuqori davlat organlari qarorlarining amalga oshirilishini ta'minlaydilar.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XX bobi mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatining konstitutsiyaviy huquqiy asoslari hamda mahalliy davlat hokimiyati organlarining faoliyati va uning takomillashtirishning konseptual asoslari o'z aksini topgan. Konstitutsiyaning 99–104-moddalarida mahalliy davlat hokimiyati organlari tizimi, mavqeyi, vazifalari, tuzilish tartibi konstitutsiyaviy darajada mustahkamlab qo'yilgan. Konstitutsiya mahalliy vakillik organlarining ikki bo'g'inli tizimi (ya'ni tuman, shahar xalq deputatlari kengashlari – quyi bo'g'in; viloyatlar va Toshkent shahri xalq deputatlari kengashlari – yuqori bo'g'in)ni mustahkamladi va bu mahalliy davlat hokimiyati to'g'risidagi qonunga o'z aksini topdi. Shuningdek, mahalliy hokimiyat organlari faoliyat yo'nalishlari ham aniq ko'rsatib berilgan bo'lib ular ixtiyoriga quyidagilar kiradi: qonuniylikni, huquqiy-tartibotni va fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash; hududlarni iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlantirish; mahalliy budjetni shakllantirish va uni ijro etish, mahalliy soliqlar, yig'implarni belgilash, budjetdan tashqari jamg'armalarni hosil qilish; mahalliy kommunal xo'jalikka rahbarlik qilish; atrof-muhitni muhofaza qilish; fuqarolik holati aktlarini qayd etishni ta'minlash; normativ hujjatlarni qabul qilish hamda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga va O'zbekiston Respublikasi qonunlariga zid kelmaydigan boshqa vakolatlarni amalga oshirish. [5]

Mahalliy hokimiyat organlari O'zbekiston Respublikasining qonunlarini, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlarini, davlat hokimiyati yuqori organlarining qarorlarini amalga oshiradilar, respublika va mahalliy ahamiyatga molik masalalarni muhokama qilishda qatnashadilar. "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunga muvofiq mahalliy davlat hokimiyati organlari ikkiga bo'linadi: mahalliy vakillik organlari va mahalliy ijroiya organlari. Mahalliy vakillik organlari o'z faoliyatini kollegiallik asosida olib boradi. Mahalliy kengash ishining asosiy tashkiliy huquqiy shakli sessiya hisoblanadi. Mahalliy vakillik organlarining hamma bo'g'inlari saylov yo'li bilan tashkil qilinadi. Qonun vakillik organlariga har tomonlama bilimga, tajribaga ega, keng, mustaqil fikrlovchi shaxslarning saylanishini va bu organlar ishchan bo'lishini nazarda tutadi.

Mahalliy ijroiya hokimiyati organlariga viloyat, tuman, shahar hokimlari boshchilik qiladi va u yakkaboshchilik prinsipi asosida ish olib boradi. Hokimiyatlar boshqarmalar, bo'limlar va bo'linmalardan iborat bo'lib, ularning tuzilishi, tashkil etilishi va faoliyati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlaydigan tegishli nizomlar bilan belgilanadi. Viloyatlar va Toshkent shahri ijroiya hokimiyati organlarining tuzilishi va shtatlari hokim tomonidan Vazirlar Mahkamasi bilan kelishilgan holda, tegishli xalq deputatlari kengashi tasdiqlagan budjet doirasida belgilanadi va o'zgartiriladi. Tuman, shahar ijroiya hokimiyati organlari tuzilishi va shtatlari tarkibi mahalliy davlat hokimiyati to'g'risidagi qonun hujjatlari asosida tartibga solinadi. [2]



O'zbekistonda mustaqillikning so'nggi yillarida boshlangan keng ko'lamdagi islohotlarning maqsadi mamlakatimizda bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin, ochiq huquqiy demokratik davlatchilikni barpo etishdir. Bu boshqa tizimlar qatori mahalliy davlat hokimiyati tizimida ham tub o'zgarishlarni amalga oshirishni taqozo qildi.

Xalqaro va milliy davlatchilik tajribalarini o'rganish asosida joylardagi mahalliy hokimiyat organlarini yangi asosda shakllantirish konsepsiyasi ishlab chiqildi. Unga ko'ra vakillik organining kollegiallik, ijroiya hokimiyatining yakkahokimlik va shaxsiy javobgarlik tamoyillari asosida shakllantirilishi ko'zda tutildi. Ana shu konseptual asosga ko'ra mamlakatimizda hokimlik instituti qayta tiklandi. Shuni ta'kidlash lozimki, hokimlik instituti bu bugungi kunga kelib qilingan ixtiro emas. Uning ildizlari ko'hna tariximizga borib taqaladi. Shuning uchun ham hokimlik tizimida mamlakatimiz milliy davlat qurilishining ko'p asrlik tajribasi o'zining aksini topdi.

Kutilayotgan islohotlarning to'liq amalga oshirilishini ta'minlashga, ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning muammolarini o'z vaqtida aniqlash va samarali hal etishga qodir bo'lgan, innovatsion rivojlanishning umumjahon tendensiyalariga javob beradigan davlat boshqaruvi tizimini yaratish, shu jumladan, ortiqcha va o'ziga xos bo'lmagan vazifa, funktsiya va vakolatlarni bartaraf etish, takrorlash va parallelizmni tugatish hisobiga davlat boshqaruvi tizimini optimallashtirish hamda nomarkazlashtirish; davlat boshqaruvini byurokratiyadan xoli qilish va uning sarf-xarajatlarini pasaytirish, boshqaruv qarorlari qabul qilish tizimining faoliyat samaradorligini va shaffofligini oshirish; strategik rejalashtirish, innovatsion g'oyalar, ishlanmalar va texnologiyalar tizimini joriy etish; iqtisodiyot tarmoqlariga ma'muriy ta'sir ko'rsatishni yanada qisqartirish hamda boshqaruvning sog'lom raqobat muhitini rivojlantirish, mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligi va aholining ishchanlik faolligini oshirishga qaratilgan bozor mexanizmlarini kengaytirish; jamoatchilik va parlament nazoratining, eng avvalo, korrupsiya ko'rinishlarining oldini olishga qaratilgan samarali shakllarini joriy etish ko'zda tutilgan.

### **XULOSA**

Fuqarolar huquq va erkinliklarini ta'minlashning ta'sirchan mexanizmlarini yaratish, ularning farovonligini va ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatidan qanoatlanish darajasini yanada oshirish, shu jumladan, davlat organlarining jismoniy va yuridik shaxslar bilan huquqiy munosabatlarini aniq tartibga solishga qaratilgan ma'muriy tartib-taomillarni takomillashtirish; ijro etuvchi hokimiyat organlarining qarorlari va harakatlari ustidan shikoyat qilish tartibini takomillashtirishni, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini kollegial eshitish mexanizmlarini joriy etishni nazarda tutuvchi ma'muriy adliya tizimini rivojlantirish; "Elektron hukumat" tizimini takomillashtirish orqali davlat xizmatlari ko'rsatishning samaradorligini oshirish va jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash hisoblanadi. Ma'muriy islohotlarni samarali amalga oshirishning pirovard natijasida "Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak" degan g'oya hayotga to'liq tatbiq etilishi lozim. Yuqorida sanab o'tilgan tavsiyalarning amalga oshirilishi mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini yanada yaxshilashga imkon beradi. Shu bilan birga milliy davlatchilikning bundan keyin ko'tarilishi va rivojlanishiga, O'zbekiston Respublikasida huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurilishiga yordam beradi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Sh.Mirziyoyev – (2022) Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. (27.04.2022 yangilangan soni)
2. “Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari” Yoshlar Nashriyoti Uyi,-T:2019. 90-91-bet
3. Tyurikov V., Shog'ulomov R. (2017) Mustaqil O'zbekiston Respublikasi. – T.: O'zbekiston, 1998. – 17 b.
4. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 06.02.2024-y., 06/24/28/0099-son
5. O'zbekiston Milliy ensiklop [ediyasi – 2000-2005
6. [www.lex.uz](http://www.lex.uz) sayti
7. <https://www.gazeta.uz/oz/2017/09/09/concept/>